



2019-yilning yanvar-iyul oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi

823,2 mlrd. so‘m

Yirik qurilish
tashkilotlari ulushi

3,4 %

Kichik korxonalar va
mikrofirmalar ulushi

80,5 %

Norasmiy sektor ulushi

16,1 %

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Sirdaryo viloyatida jami **823,2** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **125,1** % ni tashkil qildi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **27,7** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **143,3** % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari **663,1** mlrd. so‘mni yoki jami qurilish ishlarining **80,5** % ini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **117,4** % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **132,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **171,8** % ni tashkil qildi.

Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi-27,7 mlrd. so‘m

o‘shish sur‘ati-143,3 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

hajmi-663,1 mlrd. so‘m


o‘shish sur‘ati-117,4 %

Norasmiy sektor

hajmi-132,4 mlrd. so‘m

o‘shish sur‘ati-171,8 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 73,2 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,3 % bandga ko'paydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 16,6 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,4 % bandga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 10,2 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % ga kamaydi.




**Qurilish ishlarining faoliyat turlari
bo'yicha tarkibi**
(jami ga nisbatan % da)



2019-yil
yanvar-iyul

- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilish obektlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




2018-yil
yanvar-iyul

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlar tarkibi
(mlrd. so'm)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo'yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Sirdaryo viloyati	823,2	27,7	663,1	132,4
<i>shaharlar</i>				
Guliston	268,5	6,7	215,2	46,6
Shirin	39,3	1,0	36,6	1,7
Yangiyer	73,4	1,0	63,6	8,8
<i>tumanlar</i>				
Boyovut	65,6	0,2	55,2	10,2
Guliston	38,2	0,0	31,0	7,2
Mirzaobod	76,5	3,6	62,6	10,3
Oqoltin	59,0	4,2	48,6	6,2
Sardoba	17,5	-	10,2	7,3
Sayxunobod	35,7	1,0	28,8	5,9
Sirdaryo	101,6	0,1	78,0	23,5
Xovos	47,9	9,9	33,3	4,7

Hududlarda qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o'sish sur'ati 124,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo tumanida 135,3 %, Mirzaobod tumanida 126,8 %, Yangiyer shahrida 121,9 %, Boyovut tumanida 122,2 % va Oqoltin tumanida 130,5 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Xovos tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 147,6 % ni tashkil qildi.



Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



▀ Yirik qurilish tashkilotlari ▀ Kichik korxonalar va mikrofirmalar ▀ Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 80,5 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,4 % ni tashkil qildi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan jami qurilish ishlaridagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 143,3 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 16,1 % tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 171,8 % ni tashkil qildi.




Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)

2018-yil yanvar-iyul



2019-yil yanvar-iyul



 Davlat mulkchilik shakli

 Nodavlat mulkchilik shakli


Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 52,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,4 % ni tashkil qildi va 2018-yil yanvar-iyuliga nisbatan 1,0 % bandga koʻpaydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 770,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 93,6 % ni (2018-yil yanvar-iyuliga nisbatan 1,0 % bandga kamayish) tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 32,6 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 12,3 %, Mirzaobod tumanida 9,3 % ga, Yangiyer shahriga 8,9 % va Boyovut tumaniga 8,0 % dan to'g'ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi.

Aloqa telefoni: (67) 225-02-37
(71) 230-86-27